

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**“Iqtisodiyot” fakulteti**

**“Innovatsion iqtisodiyot” kafedrası**

**Ro‘yxatga olindi**

**№ \_\_\_\_\_**

**2022 yil “ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_**

**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor  
dots. O.N.Bozorov**

**2022 yil “ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_**

**“JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO IQTISODIY  
MUNOSABATLAR”**

**fanidan**

**ISHCHI O‘QUV DASTURI**

**Bilim sohasi: 200000 - Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq**  
**Ta’lim sohasi: 230000 - Iqtisod**  
**Ta’lim yo‘nalishi: 5230100 - *Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar) ta’lim yo‘nalishi 5-kurs sirtqi bo‘lim talabalari uchun IX-semestrğa mo‘ljallangan***

**QARSHI – 2022 yil**

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 25 avgustdagi № 744-sonli bo'yrug'ining 6-ilovasi bilan tasdiqlangan namunaviy fan dasturi asosida tuzilgan.

**Tuzuvchilar:**

**“Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasini  
dotsenti, i.f.n. SH.SH.Fayziyeva**

Fanning ishchi o'quv dasturi “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasining **2022 yil “22” avgustagi 01-son** yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakulteti Uslubiy Komissiyasida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Fanning ishchi o'quv dasturi “Iqtisodiyot” fakulteti Uslubiy Komissiyasida (**bayon №01 “24” avgust 2021 yil**) va institut Uslubiy Kengashida (**bayon №01 “29” avgust 2022 yil**) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

**O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i** \_\_\_\_\_ **dots. SH.R.Turdiyev**

**“Iqtisodiyot” fakulteti**

**Uslubiy komissiyasi raisi:** \_\_\_\_\_ **dots. A.B.Qurbonov**

**“Innovatsion iqtisodiyot”  
kafedrasini mudiri:**

\_\_\_\_\_ **prof. S.N.Xamrayeva**

## KIRISH

Ma'lumki, iqtisodiy rivojlanish jahonning barcha davlatlari uchun umumiy tabiiy qonuniyatlari asosida boradi. Rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari, yo'llari mavjud bo'lib, ular jahonning u yoki bu mamlakatlarini jug'rofiy o'rni, tabiiy sharoiti, iqlimi, tabiiy resurslari, aholisi, iqtisodiy rivojlanish darajasi va munosabatlarining ko'pgina boshqa sabablariga ko'ra turlicha bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Mamlakatimiz ilk bor xalqaro kredit reytingini oldi va jahon moliya bozorida 1 milliard dollarlik obligatsiyalarini muvaffaqiyatli joylashtirdi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan O'zbekistonning kreditga doir tavakkalchilik reytingi oxirgi 10 yilda birinchi marta yaxshilandi. Energetika, neft-gaz, geologiya, transport, yo'l qurilishi, qishloq va suv xo'jaligi, ichimlik suvi va issiqlik ta'minoti hamda boshqa qator tarmoqlarda chuqur tarkibiy islohotlar boshlandi. Sanoatning 12 ta yetakchi tarmog'ida modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish dasturlari jadal amalga oshirilmoqda.

Natijada o'tgan yili iqtisodiy o'sish 5,6 foizni tashkil etdi.

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga, eksport – 28 foizga ko'paydi.

Oltin-valyuta zaxiralarimiz 2019 yil davomida 2,2 milliard dollarga ortib, 28,6 milliard dollarga yetdi"<sup>1</sup>.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining universitet va institutlarini iqtisodiy yo'nalishidagi barcha fakul'tetlarida "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" fanini o'qitish muhim ahamiyatga molikdir.

"Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" fanining maqsadi–talabalarni jahonning etakchi mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishining uziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish, milliy xo'jaliklar taraqqiyoti xususiyatlari va makroiqtisodiy modellar tahlili, O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotini taqqoslash kabilar hisoblanadi.

"Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" fanining asosiy vazifasi – jahonning etakchi mamlakatlar iqtisodiyotlari bilan bir qatorda diqqatga sazovor bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti bilan tanishtirishdan iborat.

"Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" fani o'z o'rganish uslubi bo'yicha alohida iqtisodiy fan sifatida barcha mutaxassislikka oid iqtisodiy fanlar bilan va shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va diplomatik fanlar bilan ham chambarchas bog'liqdir.

"Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" fanini o'rganishda ma'ruza va amaliy (seminar) mashg'ulotlarida klaster, insert, aqliy xujum usullari, keys-stadidan foydalanilib, kichik guruhlar usuli, muammoli ta'lim texnologiyalari, klaster usullari kabi ilg'or texnologiyalardan foydalaniladi.

### **Fanning asosiy maqsadi va vazifalari**

"Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" fanining maqsadi–talabalarni jahonning etakchi mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish, milliy xo'jaliklar taraqqiyoti xususiyatlari va makroiqtisodiy modellar tahlili, O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotini taqqoslash kabilar hisoblanadi.

Fanning asosiy vazifalari bo'lib qo'yidagilar hisoblanadi:

"Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" fanining asosiy vazifasi – jahonning etakchi mamlakatlar iqtisodiyotlari bilan bir qatorda diqqatga sazovor bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti bilan tanishtirishdan iborat. Shuningdek:

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar.

- mamlakatni oziq-ovqat va sanoatini xom-ashyo bilan ta'minlash;
  - xalq xo'jaligi tarmoqlari ishlab chiqarishini urganish;
  - korxonalar ishlab chiqarish hajmi va tuzilishini xalq xo'jaligi ehtiyojlariga muvofiqlashtirish;
  - korxonalarni yangi shakllarini tuzish va ular faoliyatini takomillashtirish;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatlarning moliyaviy ahvolini yaxshilashning ichki imkoniyatlarini aniqlash yo'llarini o'rganish.

### **Fan bo'yicha talabaning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar**

Fan buyicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:

➤ jahon iqtisodiyotning rivojlanish holati, mamlakatlar o'rtasidagi tashqi iqtisodiy aloqalarning o'rnatilishi, mahsulotlar eksportining holati, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi holatini anglab yetish va samarali foydalanish usul va yo'llarini **biladi va ulardan foydalana oladi**;

➤ jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar bo'yicha amalga oshirilayotgan istiqbolli va strategik muhim **loyihalarni amalga oshirish ko'nikmalariga** ega bo'ladi;

➤ jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ijobiy hamda salbiy oqibatlari, ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash; transformatsiya samaradorligini baholash; kuzatishlar natijasida olingan ma'lumotlarni tizimlash va qayta ishlash; ma'lumotlarni qayta ishlash natijalarini umumlashtirish va tashkil qilish **ko'nikmalariga ega bo'ladi**

### **O'quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi**

“Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” fani umumkasbiy fanlar majmuasiga taalluqli bo'lib, “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Statistika”, “Makroiqtisodiyot”, “Mehnat iqtisodiyoti. Inson taraqqiyoti”, “Kichik biznes va tadbirkorlik” fanlaridan yetarlicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi.

### **Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

### **5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar) yo'nalishi 5-kurs talabalari uchun “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” fanidan mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:**

<i>Umumiy o'quv soati</i>	<i>114 soat</i>
<i>Shu jumladan:</i>	
<i>Jami auditoriya soatlari</i>	<i>28 soat</i>
<i>Ma'ruza</i>	<i>14 soat</i>
<i>Amaliy mashg'ulotlar</i>	<i>14 soat</i>
<i>Mustaqil ta'lim</i>	<i>86 soat</i>

## ASOSIY QISM

### Ma'ruza mashg'ulotlari

#### **1-mavzu. "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: asosiy ko'rinishlari va xususiyatlari. Xalqaro mehnat taqsimoti"**

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar fani, uning mohiyati va tarkibi. Kursning predmeti va ob'ekti. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda jami sohalar, uyushmalar, korxonalar, tashkilotlarning yig'indisi bo'lib, ular yagona iqtisodiy tizimga, umumiy qonunlarga va rivojlanish maqsadlariga asoslangan holda o'zaro birlashgan. Milliy iqtisodiyot jarayonlari va uning iqtisodiy ob'ektlarini baholashda makroyondashuv. Xalqaro iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy nazariyaning eng yosh va dinamik rivojlanayotgan bo'lagi sifatida. Iqtisodiy fanlar tizimida milliy va xalqaro iqtisodiyotning o'rni.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** dialogik yondashuv, insert usuli, T-sxemasi, blits-so'rov, munozara, diagramma- venna, o'z-o'zini nazorat.

**Abadiyotlar:** A1, A2, A3, A 4, A 5, Q6, Q3, Q10, Q11, Q12, Q13, Q 14, Q15, Q16, Q25, Q26, Q29, Q30, Q31, Q32, Q44

#### **2-mavzu. "Xalqaro savdoning rivojlanish nazariyalari va modellari"**

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida xalqaro savdo. Tashqi savdoni erkinlashtirish (liberallashtirish) va jahon savdosida proteksionizm siyosati.

Merkantilistlar nazariyasi va mutlaq ustunlik nazariyasi. Amaliyotdagi iqtisodiy siyosat. Merkantilizmni tanqid. Mehnat taqsimoti – o'sishning asosi. Mutlaq ustunliklar modeli. Nisbiy ustunlik nazariyasi: Muqobil xarajatlar. Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi. Ishlab chiqarish omillari bilan turlicha ta'minlanganlik. Leontyev paradoksi.

Xalqaro savdoning umumiy muvozanat nazariyasi va zamonaviy xalqaro savdoning rivojlanishi. Xalqaro muvozanat. Rivojlanishning asosiy tendensiyalari. Xalqaro savdoni tahlil qilish instrumentlari: Savdo sharti. Eksport va import egiluvchanligi. Sotiladigan va sotilmaydigan tovarlar modeli.

Xalqaro savdoning klassik nazariyalarining rivojlantirilishi. Nazariyalarning cheklanganligi. Noan'anaviy yondashuvlar. Maxsus va harakatchan omillar. Xalqaro savdoning yangi nazariyalari.

Xalqaro savdoning daromadga ta'siri, keng ko'lamda ishlab chiqarish effekti va nosog'lom raqobat. Monopolistik raqobat sharoitida savdo.

Tarmoq ichidagi savdo nazariyasi, xalqaro savdoda talab va revers nazariyalari: Tarmoq ichidagi savdo va tarmoqlararo savdoning farqlari. Tarmoq ichidagi savdo modeli. Tarmoq ichidagi savdoning o'zgarishi. Kesishuvchi talab. Ishlab chiqarish omillari reversi. Differensiallashgan tovarlar. Iste'molchilarning daromadlarining barobarligi va ularning didlarining o'xshashligi. Iste'molchi hatti-harakati asosida iqtisodiy modellar.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** dialogik yondashuv, insert usuli, T-sxemasi, blits-so'rov, munozara, diagramma- venna, o'z-o'zini nazorat.

**Abadiyotlar:** A1, A2, A3, A 4, A 5, Q6, Q5, Q10, Q11, Q12, Q13, Q 14, Q15, Q16, Q25, Q26, Q28, Q30, Q31, Q32, Q55

### 3-mavzu. “Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish yo‘llari”

Erkin savdo va proteksionizm: Xalqaro savdoda davlatning roli. Savdo siyosati instrumentlari. Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solish. Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solish instrumentlari. Tarifli va notarif usullar.

Bojxona tariflari va bojlar. Bojga tortish meyori. Tarif eskalatsiyasi. Tariflarning iqtisodiy roli: Tarifning kichik mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri. Tarifning katta mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri. Daromad effekti va chegaraviy effekt. Himoyalash va iste’mol effekti. Ichki va tashqi daromad effekti. Tarif siyosatiinig maxsus holatlari: Optimal tarif. Tarif kvotasi. Eksport tarifi. Tarifga qarshi argumentlar. Tarifni yoqlovchi argumentlar. Milliy iqtisodiy farovonlik. O‘zgaruvchan bojxona bojlari. Eksport bojining fiskal va muvozanatlash vazifalari. Tariflar o‘rnatilishiga turlicha qarashlar. Yosh tarmoqlarni xorijiy raqobatdan himoyalash va milliy xavfsizlikni ta’minlash.

Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solishning notarif usullari. Miqdoriy cheklashlar: Notarif usullarni o‘lchash. Kvotalash yoki kontingentlash. Litsenziyalash. «Ko‘ngilli» eksport cheklashlari. Notarif usullarni miqdoriy jihatdan kvalifikatsiyalash. Miqdoriy cheklashlar. Cheklashlarning importyor uchun umumiy iqtisodiy effekti. Savdo siyosatining yashirin usullari: Texnik to‘siqlar. Milliy standartlarga rioya qilish. Import mahsuloti sifati to‘g‘risida sertifikat olish. Tovarlarini maxsus qoliplash va markirovkalash. Sanitariya-gigiyena meyorlariga rioya qilish to‘g‘risida talablar qo‘yish, ichki soliqlar va aksizlar.

Savdo siyosatining moliyaviy usullari va tartibga solishning noiqtisodiy usullari: Subsidiyalar. Demping. Savdo shartnomalari. Huquqiy rejimlar. Milliy eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan pul to‘lovlari. Eksport subsidiyasi. Dempingga qarshi bojlar. Ikki hamkor davlat tomonidan savdoni amalga oshirishning huquqiy asosini belgilovchi ikki tomonlama shartnomalar imzolash. Qulay savdo rejimi o‘rnatish. Ko‘ptomonlama kelishuvlar imzolanishi.

I.A. Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yullari va choralari” asarida zamonaviy jahon xo‘jaligiga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta’siri va bahosi

**Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:** dialogik yondashuv, insert usuli, T-sxemasi, blits-so‘rov, munozara, diagramma- venna, o‘z-o‘zini nazorat.

**Abadiyotlar:** A1, A2, A3, A 4, A 5, Q6, Q4, Q10, Q11, Q12, Q13, Q 14, Q15, Q16, Q25, Q26, Q27, Q30, Q31, Q32, Q46

### 4-mavzu. “Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi”

Jahon ishchi kuchi bozorining mohiyati va paydo bo‘lish sabablari. Mehnat migratsiyasining asosiy yo‘nalishlari va markazlari. Xalqaro mehnat migratsiyasi ko‘rinishlari. Migrantlar-mehnat qoibiliyati yoshdagi iqtisodiy faol odamlar. Xorijda ish qidirishga intilayotgan damlarga ko‘maklashuvchi migratsiya xizmatlari va xalqaro tashkilotlari.

Jahon ishchi bozoridagi eksportyor mamlakatlar. Migratsiya jarayonlarining importyor mamlakatlar iqtisodiyotiga ta’siri. Xorijdan valyuta transferti oqimlarini kengayishi-ishchi

kuchini eksport qiluvchi mamlakatlar asosiy foydasi sifatida. Mehnat immigratsiyasining miqdoriy va sifat darajasini kvotalar va cheklashlar joriy qilish orqali tartibga solish.

“Aqlli kishilarni ketib qolishi” muammosining mohiyati. Bu muammoning O‘zbekistonda hal etish imkoniyatlari. Ishga joylashish maqsadida xorijga chiqib ketgan malakali kadrlarni yo‘qotishning eksport qiluvchi mamlakat uchun iqtisodiy zarari. Muammoni hal etishning umumiy iqtisodiy va utilitar yo‘llari.

**Qo‘llaniladigan ta‘lim texnologiyalari:** dialogik yondashuv, muammoli ta‘lim, T-sxemasi, blits-so‘rov, munozara, keys yozish, o‘z-o‘zini nazorat.

**Abadiyotlar:** A1, A2, A3, A 4, A 5, Q6, Q8, Q10, Q11, Q12, Q13, Q 14, Q15, Q16, Q24, Q26, Q30, Q34, Q39, Q44, Q48

### **5-mavzu. “Xalqaro kapiatal migratsiyasi va transmilliy kompaniyalar”**

CHetga kapital chiqarishg xalqaro iqtisodiy munosabatlarni ko‘rinishlaridan biridir. Kapital chiqarishni sababi va mohiyati. To‘g‘ri portfel investitsiyalar. Jahon iqtisodiyotida xalqaro qarzarlar (zayomlar), ularning tutgan o‘rni. Rivojlanishda rasmiy yordam tushunchasi. Kapital chiqarishning asosiy yo‘nalishlari, ko‘lamlari. Investitsion iqlim.

Kapital olib chiqishning mohiyati va ko‘rinishlari. Jahon kapital bozorining mohiyati va paydo bo‘lish jarayoni. Kapital olib chiqish ko‘rinishlari. Umumjahon banki guruhining faoliyati. Jahon kapital bozorining zamonaviy ko‘rinishi. Kapitallarni ichki muomaladan olib maksimal darajada foyda olish maqsadida xorijga chiqarish. Rivojlangan kapital bozorlari.

To‘g‘ri va portfel investitsiyalar: To‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning mohiyati va ahamiyati. Portfel investitsiyalarning xususiyatlari. Investitsion muhit tushunchasi. TMKning faoliyati ko‘lamining kengayishi-to‘g‘ri kapital qo‘yilmalarining eng etakchi tamoyil sifatida. Xorijdan moliyaviy resurslar jalb qilishning zaruriy iqtisodiy omillari.

Kapital eksporti jo‘g‘rofiy tuzilmasidagi o‘zgarishlar. Kapital eksportining zamonaviy jo‘g‘rofiy tuzilmasi. Jahon kapital bozorida O‘zbekistonning o‘rni. Rivojlangan iqtisodiyotlar rolining ortib borishi. Jahon bozoriga yangi industrial mamlakatlarning katta guruhui va sobiq sotsialistik davlatlarning kirib kelishi.

Jahon iqtisodiyotida Transmilliy korporatsiyalar (TMK). TMKning tashkil topishi, faoliyati va ishlab chiqarishni baynalmilalashuvdagi roli. TMKlar va yangi sanoatlashgan davlatlar. TMKlar faoliyatini xalqaro boshqaruvi. Xalqaro korporatsiyalarning mohiyati, tuzilmasi va ko‘rinishlari. Bosh kompaniya, assotsiatsiyalashgan firmalar, sho‘ba korxonalar, kichik shaxobchalar. TMKning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rni va ahamiyati. TMK faoliyatining yangi ko‘rinishlari: lizing va faktoring.

XX-XXI asrlar bo‘zag‘asida xorijiy mamlakatlarning kapital qo‘yilmalari va uning Respublika iqtisodiyotini rivojlanishidagi ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilinishi, muammolari. Chet el investitsiyalarini davlat tomonidan boshqaruvi. Chet el investitsiyalari to‘g‘risidagi qonun. O‘zbekiston iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilinishi, shakllari. Tabiiy resurslarni o‘zlashtirishda chet el kapitalining tutgan o‘rni. Respublikaning huquqiy va iqtisodiy boshqaruvi, rivojlanish muammolari.

**Qo‘llaniladigan ta‘lim texnologiyalari:** dialogik yondashuv, muammoli ta‘lim, T-sxemasi, blits-so‘rov, munozara, insert usuli

**Abadiyotlar:** A1, A2, A3, A 4, A 5, Q6, Q2, Q10, Q11, Q12, Q13, Q 14, Q15, Q16, Q24, Q26, Q29, Q30, Q31, Q36, Q45

## **6-mavzu. “Jahon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy hududlarning tutgan o’rni”**

Jahon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy hududlar, ularning funktsiyalari va turkumlanishi (klassifikatsiyasi). Erkin iqtisodiy hududlar tajribasi. “Erkin iqtisodiy hudud” (EIH) tushunchasi. Erkin iqtisodiy hududlarning asosiy ko’rinishlari. Erkin iqtisodiy hududlarni yaratishning AQSH, Xitoy modellari va ularning xususiyatlari. Moliyaviy va ma’muriy tadbirlar.

Erkin iqtisodiy hududlarda joriy etiladigan imtiyozlar. Savdo EIHlari. Texnoparklar. Offshor hududlar.

**Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari:** dialogik yondashuv, muammoli ta’lim, T-sxemasi, baliq skeleti, guruhlarda ishlash, blits-so’rov, munozara, o’z-o’zini nazorat.

**Abadiyotlar:** A1, A2, A3, A 4, A 5, Q6, Q9, Q10, Q11, Q12, Q13, Q 14, Q15, Q16, Q25, Q26, Q29, Q30, Q31, Q46, Q47

## **7-mavzu. “Xalqaro valyuta – moliya va kredit munosabatlari”**

Milliy va mintaqaviy valyutalar tizimidagi asosiy qonun-qoidalar. Valyuta bozorlari, ularning funktsiyasi, turlari. Xalqaro kredit munosabatlarning mohiyati, mazmuni.

Suzib yuruvchi va fiksatsiya qilingan valyuta kurslari. Valyuta operatsiyalari, ularning ko’rinishi. Valyuta pozitsiyasini shakllari. “SVOP”, “FORVARD” operatsiyalari, valyuta vaucherlari “SPOT”, qimmatbaho qog’ozlar arbitraji. Valyutani cheklanishi, uning ko’rinishlari. Valyuta tavakkalchiligi. Valyuta tavakkalchiligini sug’urtalash. Xalqaro moliyaviy kredit tashkilotlar. Xalqaro valyuta fondi (XVF), uning funktsiyalari. Xalqaro bank guruhlari: Evropa rivojlanish va qayta tiklash banki (ETT), Osiy rivojlanish banki (ORB) va boshqalar.

**Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari:** muammoli ta’lim, T-sxemasi, blits-so’rov, “Klaster”, munozara, BBB jadval,

**Abadiyotlar:** A1, A2, A3, A 4, A 5, Q6, Q2, Q10, Q11, Q12, Q13, Q 14, Q15, Q16, Q25, Q26, Q29, Q35, Q44, Q50, Q51, Q56, Q57

## **8-mavzu. “Jahon xo’jaligida rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti”**

Rivojlangan davlatlar guruhining jahon xo’jaligi va siyosatida tutgan o’rni.

Rivojlangan davlatlar sanoatiga xarakteristika. Guruhga kiruvchi mamlakatlar kriteriyasi, iqtisodiyotini umumiy belgilari. Iqtisodiyotdagi makrotuzilma. Mamlakatlarning ilmiy-texnikaviy va mahsulot ishlab chiqarish sohasidagi, tabiiy resurslari va mehnat taqsimoti sohasidagi imkoniyatlari. Inson omilini roli. Milliy iqtisodiyotning strukturasi o’ziga xos xususiyatlari. Iqtisodiy rivojlanshning dastlabki shart-sharoitlari va xususiyatlari.

“Katta sakizlik” etakchi rivojlangan davlatlarni jahon sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi, jahon savdosi va xalqaro kapital migratsiyasidagi ulushi. Rivojlangan davlatlar iqtisodiyotining hozirgi davr strukturasi. Mamlakatlar sanoati strukturasi o’zgarishlar.

Rivojlangan mamlakatlarning moliya-kredit siyosati. “Katta sakkizlik” davlatlarning tashqi iqtisodiy strategiyasi. Asosiy sanoat va moliyaviy markazlar. Dunyo hukmronligining qo’lda ushlab turishda AQSHning iqtisodiy hamkorlik markazlari. Yaponiya kuchli iqtisodiy markaz. G’arbiy Evropa sanoati rivojlangan mamlakatlar joylashgan hududlar.

Rivojlangan mamlakatlarda tashqi savdo va uning zamonaviy yo’nalishlari. Ilmiy-



texnikaviy munosabatlar. Valyuta munosabatlarini harakteri.

G'arbiy Evropadagi integratsion jarayonlar. Evropa ittifoqi-G'arbiy Evropaning raqobat markaziy yadrosidir.

Rivojlangan mamlakatlarning tashqi iqtisodiy strategiyasi. Ilmiy-texnika inqilobi (ITI) ta'sirida rivojlangan mamlakatlarning makroiqtisodiy strukturasiidagi o'zgarishlar. Iqtisodiy ko'rsatkichlarni asosiy dinamikasi. Qisqa muddatli reja va tavakkalchilik. Sanoati rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotidagi umumiy muammolar.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** aqliy hujum, muammoli ta'lim, T-sxemasi, keys yozish, blits-so'rov, munozara, o'z-o'zini nazorat.

**Abadiyotlar:** A1, A2, A3, A 4, A 5, Q6, Q2, Q10, Q11, Q12, Q13, Q 14, Q15, Q16, Q25, Q29, Q34, Q44, Q45, Q48, Q49, Q50, Q51

### **9-mavzu. "Rivojlanayotgan mamlakatlar-xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida"**

Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy belgilari, xususiyatlari. Xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni. Mamlakatlarning asosiy guruhleri.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning rivojlanish darajasiga ko'ra qoloq va o'rta darajadagi rivojlanayotgan, rivojlanib borayotgan "yangi sanoatlashgan mamlakatlar"ga bo'linishi.

Xalqaro mehnat taqsimotida rivojlanayotgan mamlakatlarning huquqiy qatnashishi, mustaqillikka erishish muammolari. Tashqi qarzlarni ko'payishi, hal etish muammolari. Rivojlanayotgan mamlakatlarda xususiylashtirish jarayonlari.

YAngi industrial mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish modellari. O'tish davridagi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** muammoli ta'lim, T-sxemasi, blits-so'rov, "Klaster", munozara, BBB jadval,

**Abadiyotlar:** A1, A2, A3, A 4, A 5, Q6, Q9, Q10, Q11, Q12, Q13, Q 14, Q15, Q16, Q23, Q24, Q25, Q26, Q29, Q30, Q31, Q32, Q33

### **10-mavzu. "Xalqaro iqtisodiy integratsiya"**

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, ko'rinishlari. G'arbiy Evropa integratsiyasining rivojlanish bosqichlari. Evropa Ittifoqi tashkilotlarining tashkil topish mexanizmlari. Evropa bo'shlig'i. Shimoliy Amerika integratsiya yo'li (NAFTA). Tayanch okeani hamkorligi tashkilotining tashkil topishi. Sharqiy Evropa integratsiyasining vazifalari. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari doirasidagi integratsion jarayonlar.

Xalqaro tashkilotlar klassifikatsiyasiga umumiy tavsif. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tizimiga kiruvchi iqtisodiy tashkilotlar va ularning vazifalari. Xalqaro moliya-valyuta va kredit tashkilotlar. O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda qatnashishi.

I.A.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida kni bartaraf etishning yo'llari va choralari" asarida xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlarga bergan bahosi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** Dialogik yondoshuv, muammoli vaziyat jadvali, ta'lim, diagramma- venna, aqliy hujum, klaster, munozara, o'z-o'zini nazorat

**Abadiyotlar:** A1, A2, A3, A 4, A 5, Q6, Q2,Q5, Q10, Q11, Q12, Q13, Q 14, Q15, Q16, Q25, Q26, Q29, Q30, Q31, Q32, Q33,Q44, Q50, Q51

### **11-mavzu. “Jahon iqtisodini tartibga solishda xalqaro tashkilotlarning roli”**

Xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lish jarayoni. Xalqaro tashkilotlarning tasniflanishi. Global va hududiy tashkilotlar. Hukumatlararo va nohukumat iqtisodiy tashkilotlar. BMT va uning tizimi. Xalqaro tashkilotlarning o'z faoliyatini qayta qurishi.

Savdo va tariflar bo'yicha Bosh kelishuvning imzolanish sabablari. Savdo va tariflar bo'yicha Bosh kelishuvning tamoyillari, vazifalari va tuzilmasi. Savdoni global erkinlashtirish jarayoni. GATT maqsadlari va funktsiyalari. O'zbekiston Respublikasining BSTga kirishi.

Butunjahon savdo tashkiloti (BST)ni tashkil etilishi va uning GATTdan farqi. BSTning tamoyillari maqsad va vazifalari. UST tuzilmasi va faoliyati. Butunjahon savdo tashkiloti-mamlakatlar va hududlar o'rtasida tovar oqimlarini tartibga solish muammolari bilan shug'ullanuvchi eng salmoqli tuzilma sifatida. Xalqaro investitsiyalarni kafolatlash agentligi, Xalqaro hisob-kitoblar banki, Xalqaro valyuta fondi, Birlashgan millatlar tashkiloti va uning ixtisoslashgan muassasalari.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, diagramma - venna, blits-so'rov, munozara, o'z-o'zini nazorat.

**Abadiyotlar:** A1, A2, A3, A 4, A 5, Q6, Q2, Q9, Q10, Q11, Q12, Q13, Q 14, Q15, Q16, Q25, Q26, Q29, Q30, Q31, Q32, Q33,Q44, Q50, Q51, Q56

### **12-mavzu. “Jahon xo'jaligining globallashuv jarayonlarida O'zbekistonning ishtiroki”**

O'zbekiston Respublikasining XX-XXI asrlar bo'sag'asidagi resurslari (tabiiy, inson, ilmiy-texnikaviy va ishlab chiqarish) va rivojlanish imkoniyatlari.

Mustaqillik yillaridagi respublikaning iqtisodiy ahvoli. Global miqyosdagi iqtisodiy inqirozlarni bartaraf etishdagi qiyinchiliklar.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri muammolari. O'zbekistonni jahon xo'jaligiga qo'shilishi. Respublikani iqtisodiy rivojlanish istiqbollari.

Xalqaro savdoda respublikani ishtiroki. Moliya tizimi, pul-kredit siyosati. Moliya bozorlarini tashkil topishi. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan olib borayotgan tashqi iqtisodiy munosabatlari.

Respublikani jahon iqtisodiyoti va integratsiyasida ishtiroki. Mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlashdagi strategik yo'nalishlari va tamoyillari. Xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlik munosabatlari.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** aqliy hujum, dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, T-sxemasi, blits-so'rov, munozara, o'z-o'zini nazorat.

**Abadiyotlar:** A1, A2, A3, A 4, A 5, A6, Q2, Q3,Q8, Q9, Q10, Q11, Q12, Q13, Q 14, Q15, Q16, Q23,Q25, Q26, Q29, Q30, Q31, Q32, Q33,Q44, Q48, Q50, Q51,Q55

**“Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” fani bo‘yicha ma’ruza  
mashg‘ulotlarining kalendar tematik rejasi**

<b>T/r</b>	<b>Ma’ruza mavzulari</b>	<b>soat</b>
1	Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: asosiy ko‘rinishlari va xususiyatlari. Xalqaro mehnat taqsimoti.	2
2	Xalqaro savdning rivojlanish nazariyalari va modellari. Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish yo‘llari	2
3	Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi. Xalqaro kapital migratsiyasi va transmilliy kompaniyalar	2
4	Jahon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy hududlarning tutgan o‘rni. Xalqaro valyuta – moliya va kredit munosabatlari	2
5	Jahon xo‘jaligida rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti. Rivojlanayotgan mamlakatlar-xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida	2
6	Xalqaro iqtisodiy integratsiya. Jahon iqtisodini tartibga solishda xalqaro tashkilotlarning roli	2
7	Jahon xo‘jaligining globallashuv jarayonlarida O‘zbekistonning ishtiroki	2
<b>Jami</b>		<b>14</b>

**“Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” fani bo‘yicha amaliy  
mashg‘ulotlarning kalendar tematik rejasi**

<b>T/r</b>	<b>Amaliy mashg‘ulot mavzulari</b>	<b>soat</b>
1	Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: asosiy ko‘rinishlari va xususiyatlari. Xalqaro mehnat taqsimoti.	2
2	Xalqaro savdning rivojlanish nazariyalari va modellari. Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish yo‘llari	2
3	Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi. Xalqaro kapital migratsiyasi va transmilliy kompaniyalar	2
4	Jahon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy hududlarning tutgan o‘rni. Xalqaro valyuta – moliya va kredit munosabatlari	2
5	Jahon xo‘jaligida rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti. Rivojlanayotgan mamlakatlar-xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida	2
6	Xalqaro iqtisodiy integratsiya. Jahon iqtisodini tartibga solishda xalqaro tashkilotlarning roli	2
7	Jahon xo‘jaligining globallashuv jarayonlarida O‘zbekistonning ishtiroki	2
<b>Jami</b>		<b>14</b>

## MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

Fan bo'yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan. Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar, amaliy misollar yechadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan topshiriqlarni bajaradi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni uqib referat (taqdimot)lar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi. Mavzuga doir masalalar, keys-stadi va o'quv loyihalarini Axborot resurs markazi manbalari hamda izlanish obekti bo'lmish korxon va tashkilotlarning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlarini to'plagan holda bajaradi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga berilgan vazifalarni bajarish, yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, Internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola (tezis) va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalar darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas. Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasinitekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

“Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan quyidagi mavzular ko'rinishida shakllantirilgan:

### Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

<b>T/r</b>	<b>Mustaqil ta'lim mavzulari</b>	<b>Ajratilgan soat</b>
1.	Jahon iqtisodiyotining mohiyati va XX-XXI asrlar bo'sag'asidagi taraqqiyotining asosiy qonuniyatlari va tamoyillari	4
2.	O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida 2022 yil uchun belgilangan ustuvor tamoyillarning ahamiyati	4
3.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi va uning natijasida amalga oshiriladigan ishlarning tashqi iqtisodiy siyosatga ta'sirini o'rganish	6
4.	Xalqaro mehnat taqsimoti jahon xo'jaligining moddiy asosi sifatida	4
5.	Xalqaro ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyasi	4
6.	Jahon iqtisodiyotida yangi industrial davlatlarning tutgan o'rni	4
7.	Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlarning iqtisodiy rivojlanish modellari	4
8.	Jahon xo'jaligida iqtisodiy xavfsizlik muammolari	4
9.	Jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiyalarning tutgan o'rni	4
10.	Jahon xo'jaligida iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanish muammolari	4
11.	Erkin iqtisodiy hududlar va ularni tashkil etish muammolari	4
12.	Xalqaro raqobat va uning zamonaviy sharoitda yuzaga chiqish xususiyatlari	4
13.	Zamonaviy jahon xjaligi sub'ektlari va mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi	4

	o'rnini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi	
14.	Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mazmuni va mohiyati	4
15.	Xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlik	4
16.	XXI asr bo'sag'asida jahon iqtisodiyotida global muammolar	4
17.	Jahon iqtisodiyotida oziq-ovqat muammosi	4
18.	Germaniya Federativ Respublikasi. Jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy munosabatlari	2
19.	Frantsiya Respublikasi iqtisodiyoti. Jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy munosabatlari	2
20.	20. Buyuk Britaniya va SHimoliy Irlandiya birlashgan qirolligi iqtisodiyoti. Jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy munosabatlari	2
21.	Italiya Respublikasi iqtisodiyoti. Jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy munosabatlari	2
22.	Yaponiya iqtisodiyoti. Jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy munosabatlari	2
23.	Koreya Respublikasi iqtisodiyoti. Jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy munosabatlari	2
24.	Malayziya federatsiyasi iqtisodiyoti. Jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy munosabatlari	2
25.	Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyoti. Jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy munosabatlari	2
<b>Jami</b>		<b>86</b>

## **KURS ISHINI TASHKIL ETISH BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR**

Fan bo'yicha kurs ishi namunaviy o'quv rejada rejalashtirilmagan.

### **Dasturning axborot-uslubiy ta'minoti**

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy ilg'or interfaol usullaridan, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining prezentatsiya (taqdimot), multimedia va elektron-didaktik texnologiyalardan foydalaniladi. Amaliy mashg'ulotlarda aqliy hujum, klaster, blits-so'rov, guruh bilan ishlash, insert, taqdimot, keys-stadi kabi usul va texnikalardan keng foydalaniladi.

### **Fan bo'yicha talabalar bilimni baholash MEZONI**

#### **“Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” fanidan talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezonlari**

Talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 5 baholik tizimda baholanadi. Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirishi oraliq baholash (ON) va yakuniy baholash (YaN) turlarida baholanadi.

#### **Oraliq baholash (OB) bo'yicha baholash mezonlari**

ON semestr davomida talabaning fan ishchi dasturini tegishli tugallangan bo'lim(lar)ini o'zlashtirishini baholash usuli. Bir semestrda ON 2 xil shaklda, ya'ni birinchi ON test o'tkazish, ikkinchi ON yozma ish shaklida o'tkaziladi. Talabaning 2ta ON bo'yicha olgan

ballarining o'rtacha arifmetik miqdori sifatida aniqlanadi va yaxlitlanib butun sonlarda belgilanadi

ON bahosi 5 baholik tizimda baholanadi.

Agar ON yozma ish asosida o'tkazilsa baholash mezonlari quyidagicha bo'ladi:

Yozma ishni o'tkazishda har bir talabaga 4 ta savoldan iborat variantlar beriladi. Variant savollariga mustaqil ish mavzulariga oid savollar ham kiritiladi. "Yozma ish" ni baholashda 1-jadvalda keltirilgan baholash mezonlaridan foydalaniladi.

**1-jadval**

**"Yozma ish"ni baholash mezonlari**

<b>Baholash tartibi</b>	<b>Baholash mezonlari</b>	<b>Baho</b>
Variantda 4 ta savol bo'lib, har bir savol alohida baholanadi	xulosa va qaror qabul qilishi; ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olishi; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.	5
	mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olishi; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.	4
	mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.	3
	dasturni o'zlashtirmaganlik; fanning mohiyatini bilmaslik; aniq tasavvurga ega bo'lmaslik; mustaqil fikrlay olmaslik.	2

2-ON test shaklida o'tkazilib, bunda test savollari 20 ta savoldan iborat bo'ladi, talabani o'zlashtirishi foiz hisobida aniqlanadi

**YaN bo'yicha baholash mezonlari**

YaN semestr yakunida talabani muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishini baholash usuli. U asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan yozma ish yoki test shaklida o'tkaziladi

**2-jadval**

**"Yozma ish"ni baholash mezonlari**

<b>Baholash tartibi</b>	<b>Baholash mezonlari</b>	<b>Ball</b>
Har bir variantda 5 ta savol bo'lib, har bir savol alohida baholanadi	xulosa va qaror qabul qilishi; ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olishi; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.	5
	mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olishi; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.	4
	mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.	3
	dasturni o'zlashtirmaganlik; fanning mohiyatini bilmaslik; aniq tasavvurga ega bo'lmaslik; mustaqil fikrlay olmaslik.	2

## **Yakuniy nazoratda “Yozma ish”larni baholash mezonlari**

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshirilganda, sinov ko‘p variantli usulda o‘tkaziladi. Har bir variant 5 ta nazariy savoldan iborat. Nazariy savollar fan bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar asosida tuzilgan bo‘lib, fanning barcha mavzularini o‘z ichiga qamrab olgan.

## **FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **3.1. Asosiy adabiyotlar**

1. Nazarova G.G., Xaydarov N.X., Akbarov M. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. T.: MCHJ “RAM-S”, 2007y. 215 bet
2. Nazarova G.G., Xalilov X., Eshtaev A., Axmedov I.A., Hakimov N.Z., Salixova N., Bobojonov B.R. “Jahon iqtisodiyoti va XIM”. Darslik – T., 2006. - 216 bet.
3. Колесов В.П., Кулаков М.В. Международная экономика: Учебник. - М.: ИНФРА-М, 2008. - 474 стр.
4. Ломакин В.К. Мировая экономика: учебник для студентов вузов, обучающихся по экономическим специальностям и направлениям / В.К. Ломакин. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 671 стр.
5. Устойчивое экономическое развитие в условиях глобализации и экономики знаний: концептуальные основы теории и практики управления / Под ред. В.В. Попкова. М.: ЗАО «Издательство «Экономика», 2007. — 295 стр.
6. Богомолов О.Т. Мировая экономика в век глобализации: Учебник. — М.: ЗАО «Экономика», 2007. — 359 стр.

### **3.2. Qo‘shimcha adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2012.– 40 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksi, 2014 y. / [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Karimov I.A. “2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir”. –T.: “O‘zbekiston”, 2015 yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “2011-2015 yillarda O‘zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”, 15.12.2010 y., №PQ-1442. / [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “2011-2015 yillarda respublika bank-moliya tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”, 26.11.2010 y., №PQ-1438/ [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
6. O‘zbekiston Respublikasining “Mulkchilik to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi: qonunlar va farmonlar. – T., 1992 yil.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni. – T., 1992 yil.
8. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali

- marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / SH.M. Mirziyoyev. – Toshkent : O'zbekiston, 2016. - 56 b.
9. Mirziyoyev SH.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 16 yanvar № 11 (6705)
  10. Mirziyoyev SH.M. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 fevralda bo'lib o'tgan majlisida ma'ruzasidan **"2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning harakatlar strategiyasi"** "Xalq so'zi" gazetasi, 08.02.2017
  11. Mirziyoyev SH.M. Oliy majlisga Murojaatnomasi. 2017 yil 22 dekabr
  12. Mirziyoyev SH.M. Oliy majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr
  13. Mirziyoyev SH.M. Oliy majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar
  14. Mualliflar guruxi O'zbekistonda biznes keyslar: Uzbekiston Respublikasidagi biznes ta'limotida "Keys-Stadi" uslubining kullanishi. O'quv kullanma. T.: Akademiya, 2006 – 645 b.
  15. Мировая экономика: прогноз до 2020 года / под ред. акад. А.А. Дынкина / ИММО РАН. – М.: Магистр, 2007. – 429 с.
  16. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения: учебник /Под ред. Л.Н. Красавиной. - 3-е изд., перераб. и доп. - М.: Финансы и статистика, 2007. - 576 с.
  17. Внешнеэкономическая деятельность: учеб. для студ. сред. проф. учеб. заведений / [Б. М. Смитиенко, В. К. Поспелов, С. В. Карпова и др.]; под ред. Б. М. Смитиенко, В. К. Поспелова. — 4-е изд., перераб. и доп. — М.: «Академия», 2007. — 304 с.
  18. Mulkchilik to'g'risida"gi O'zbekiston respublikasining Qonuni. O'zbekiston respublikasi: qonunlar va farmonlar. – T., 1992 yil.
  19. Мировая экономика и международный бизнес: учебник / кол. авторов ; под общ. Ред. д-ра экон. Наук, проф. В.В.Полякова и д-ра экон. Наук, проф.р.к.Щенина.- 5-е изд., стер.- М.:КНОРУС, 2008.-688 с.
  20. Кочетов Э. Г. Геоэкономика. Освоение мирового экономического пространства: Учебник для вузов. — М.: Норма, 2006. — 528 с: ил.
  21. Комаров М.П. "Инфраструктура регионов мира": учебник. - СПб.: . Изд. 2008-
  22. Кочетов Э.Г. Геоэкономика. Освоение мирового экономического пространства: Учебник для вузов. - М.: Норма, 2006. - 528с.
  23. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения.–М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008-196 с.
  24. Ломакин В.К.. Мировая экономика. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. -735 б.
  25. Кудров В.М. Мировая экономика. – М.: Дело 2008.-528 б.
  26. Николаева И.П. "Мировая экономика" Учеб. пособие для вузов М., Юнити, 2004
  27. Погорлетский А.И. Экономика зарубежных стран. – СПб., 2003.- 492 б.
  28. Кругман П. Международная экономика. 5-е изд. – СПб.:Питер. 2004. -831
  29. Ломакин В.К. Мировая экономика. Практикум: учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по экономическим специальностям и направлениям / В.К. Ломакин. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 223 с.
  30. "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston respublikasining Qonuni. – T., 1992 yil.
  31. "Tadbirkorlik to'g'risida"gi Uzbekiston respublikasining Qonuni. – T., 1992 yil.
  32. "Ijara to'g'risida"gi O'zbekiston respublikasining Qonuni. – T., 1998 yil.



33. “Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida”gi O'zbekiston respublikasining Qonuni. – T., 1998 yil.
34. “Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” : O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 fevraldagi PF-4191-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami – 9 son – 2010- 9 mart.
35. “Barkamol avlod yili” davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida: O'zR Prezidentining Farmoyishi. 2009 yil 9 dekabr' //Xalq so'zi. -2009. - № 238. – mo dekabr'. – 1 b.
36. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ”Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi” Farmoni// Xalq so'zi, 2005 , 15 iyun.
37. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida” Farmoni// Xalq so'zi, 2005,15 iyun.
38. О мерах по дальнейшему развитию и модернизации предприятий текстильной промышленности и расширению производства отечественных непродовольственных потребительских товаров на 2009-2011 годы: Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 20 августа 2009 года № 236 //Собрание законодательства Республики Узбекистан – 2009. - № 34. – 372.
39. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi” to'g'risida Qarori//O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari to'plami, 1999 54 – son, 1999 dekabr. – T.:Uzbekiston. Adliya vazirligi., 2000.-15-20 b. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida NIZOM. 1999 yil 5 fevral'. – T.:O'zbekiston, 1999.- 92 b.
40. Инвестиции республики Узбекистан 2018. Статистический сборник. – Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2018. – 148 с
41. Промышленность республики Узбекистан 2014. Статистический сборник. - Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2018. – 156 с.
42. Сельское хозяйство Узбекистана 2014. Статистический сборник. – Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2018. – 160 с

### **3.3. Internet saytlari**

43. Программа курса “Микроэкономика”. <http://www.uz.omskreg.ru/ekonruk>
44. [www.ekonomics.uz](http://www.ekonomics.uz)
45. [www.ved.ru](http://www.ved.ru)
46. [www.ser.uz](http://www.ser.uz)
47. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)
48. [www.ifmr.uz](http://www.ifmr.uz)
49. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)
50. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
51. [www.marketing.ru](http://www.marketing.ru)
52. [www.brand.uz](http://www.brand.uz)

- 53. [www.doc.uz](http://www.doc.uz)
- 54. [www.qmii.uz](http://www.qmii.uz)
- 55. [www.tdiu.uz](http://www.tdiu.uz)
- 56. [www.knigka.ru](http://www.knigka.ru)
- 57. [www.bank.uz](http://www.bank.uz)



